



UDK: 1(091)(575.1)

Faxriddin MUSAYEV,

Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti professori, falsafa fanlari doktori

E-mail: faxriddin7448@gmail.com

FOROBIYNING FALSAFIY G'OYALARI VA ULARNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi, uning tafakkur tarixidagi o'rni va bugungi insoniyat hayotidagi falsafiy-axloqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asarlarida ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy insonparvarlik, axloq, siyosat va ta'lim falsafasi nuqtai nazaridan qayta o'rganiladi. Maqolada Forobiy ta'limotining XXI asr sivilizatsiyasi uchun dolzarbligi, xususan, ma'naviyat, ijtimoiy adolat va aqlparvarlik g'oyalarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Forobiy, fozil jamiyat, aql, ma'naviyat, axloq, falsafa, insonparvarlik, siyosat, adolat.

ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ АЛЬ-ФАРАБИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация

В статье анализируется научно-философское наследие великого мыслителя Абу Насра аль-Фараби, его место в истории мысли и философско-нравственное значение в жизни современного человечества. Идеи, изложенные в таких трудах аль-Фараби, как «Град добродетельных людей», «О достижении счастья», «О смыслах разума», переосмысливаются с позиций современного гуманизма, этики, политики и философии образования. В статье подчеркивается актуальность учения аль-Фараби для цивилизации XXI века, в частности, важность идей духовности, социальной справедливости и рациональности.

Ключевые слова: Аль-Фараби, добродетельное общество, разум, духовность, этика, философия, гуманизм, политика, справедливость.

AL-FARABI'S PHILOSOPHICAL IDEAS AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN CIVILIZATION

Annotation

This article analyzes the scientific and philosophical heritage of the great thinker Abu Nasr Al-Farabi, his place in the history of thought and his philosophical and moral significance in the life of humanity today. The ideas put forward in Al-Farabi's works such as "The City of Virtuous People", "On the Achievement of Happiness", "On the Meanings of Reason" are re-examined from the perspective of modern humanism, ethics, politics and philosophy of education. The article highlights the relevance of Al-Farabi's teachings for the civilization of the 21st century, in particular, the importance of the ideas of spirituality, social justice and rationality.

Key words: Al-Farabi, virtuous society, mind, spirituality, ethics, philosophy, humanity, politics, justice.

Kirish. So'nggi yillardagi global pandemiya insoniyatni chuqur ijtimoiy sinovlarga duchor qildi va bu jarayonda jamiyatning yagona tayanchi – bilim va tafakkur ekani yaqqol namoyon bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, falsafiy antropologiya asoschilaridan biri, "Ikkinchi muallim" nomi bilan tanilgan Abu Nasr Forobiy qarashlari bugun ham dolzarbdir. U inson aql-zakovati, tafakkur va ma'naviyatni taraqqiyotning asosiy omili sifatida e'tirof etgan, insonning tabiat bilan uyg'un hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarni aql vositasida yaratish zaruratiga urg'u bergan.

Forobiy insonning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini, uning ijtimoiy va madaniy faoliyatining biologik asoslarini tahlil qilib, aqlni insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi oliy sifat sifatida talqin etadi. Shu bois allomaning inson, ma'naviyat va tafakkur haqidagi ta'limoti nafaqat o'z davrida, balki bugungi zamon uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.[1].

Abu Nasr Forobiyning falsafiy merosi bugungi kunda butun dunyo olimlari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Mustaqillik yillarida ajdodlarimizning boy ma'naviy-falsafiy merosini tadqiq qilishga munosib darajada e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" deb nomlangan beshinchi ustuvor vazifasidagi 73-maqсадda, aynan, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" ko'zda tutilgan. Mazkur vazifa ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish hamda o'sib kelayotgan yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishni nazarda tutadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abu Nasr Forobiy – o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. Abu Nasr Forobiy Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida 873-yilda turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida tug'ilib, Shosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida o'qidi, Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan, Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahlari to'plangan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari – Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo'ldi. Forobiy

Bag'dodda al-Mutaddil (829-902), al-Muqtafiy (902-908), al-Muqtadir (908-932) xalifalıkları davrida yashadi. [3].

Abu Nasr Forobiy turli sohalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. Alloma "Aql haqidagi risola" "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa manbalari", "Masalalar manbalari" kabi 160 dan ortiq risolalar yozgan.

Taxminan 941-yildan boshlab, Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943-967) iltifotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotlar uning Halabdagi hayotini eng samarali hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e'tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko'nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko'radi. Forobiy 949-950-yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, 950-yilda vafot etgan va "Bob as-sag'ir" qabristoniga dafn qilingan[4].

Forobiy turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izhlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalarga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey va Porfiriylarning asarlariga chuqur sharhlar yozgan. Ayniqsa, u Aristotelning "Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" kabi asarlarini batafsil tahlil qilib, ularning murakkab jihatlarini tushuntirgan hamda falsafiy mohiyatini ochib bergan. Forobiyning bu sharhlari O'rta va Yaqin Sharq mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etgan. Ibn Sino ham Aristotel asarlarini aynan Forobiy izohlari orqali chuqur anglaganini ta'kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati nafaqat Sharqda, balki o'rta asr Yevropasida ham yunon ilm-fanini targ'ib etishda muhim o'rin tutdi. Bu davr uning ilmiy tafakkuri rivojining dastlabki, ammo eng samarali bosqichi bo'lib, keyingi tadqiqotlariga zamin yaratgan.

Forobiyning asarlari mazmuniga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linadi. Ularning ayrimlari falsafaning umumiy masalalari, bilish jarayoni va metodlariga bag'ishlangan bo'lsa, boshqalari tabiiy va aniq fanlar — matematika, geometriya, astronomiya, musiqa, fizika, kimyo, tibbiyot va biologiya kabi sohalarni qamrab oladi. Shuningdek, alloma tilshunoslik, she'riyat, notiqlik, axloq, siyosat va tarbiya masalalarini ham yoritgan.

Umuman olganda, Forobiyning ilmiy merosi o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid nihoyatda boy bilim manbai hisoblanadi.[5].

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy, shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham bitgan. Forobiy asarlari XII- XIII asrlardayoq, lotin, qadimgi yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilinib, dunyo bo'ylab keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani o'z ichiga olgan (jumladan, Forobiyning 16 arabcha risolasi) "Hakimlar risolalari to'plami" ("Majmuat rasoil al-hukamo", Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Forobiy asarlarini o'rganishda

muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Forobiy risolalari 1975-yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Forobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lganligining e'tirofi shundaki, Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al-Kiftiy, ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Forobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, Ibn Rushd Forobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham yozdi. Taraqqiyparvar insoniyat Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganmoqda. Yevropa olimlaridan B. M. Shtrenshneyder, Karra de Vo, T. U. Buur, R. Xammond, R. de Erlande, F. Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M. Maxdi va boshqalar Forobiy merosini tadqiq etishga muayyan hissa qo'shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

Yaqin va O'rta Sharqda "Ikkinchi muallim" deb nom qozongan Markaziy osiyolik mashhur olim Forobiyning mantiq ilmiga qo'shgan hissasi ham beqiyosdir. Forobiy hali hech bir mutafakkir uddalay olmagan vazifani, ya'ni, Arastuning va umuman, qadimgi grek mantiq'ini keng tinglovchilar o'rganishi uchun eng oddiy, tushunarli vosita va uslublarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Mantiq tarixchilarining ta'kidlashicha, Forobiy bu tavsiiylari bilan Arastuning mantiq'iga o'zgacha fayz kiritib, uning kitobxonlar orasidagi mavqei yanada ko'tarilishiga erishdi. Forobiyning mantiqqa oid asarlari jumlasiga "Isaguvchi" (kirish), "Maqulot" (Kategoriya), "Ibora" (Hukm), "Qiyos" (Sillogizm), "Birinchii analitika", "Burxon" (Isbotlash-ikkinchi analitika), "Djadal" (Munozara "Dialektika"), "Safsata" (Sofistik raddiya), "Xitoba" (Ritorika), "She'r" (Poetika), "Mantiq ilmiga kirish", "Aql haqida" "Sillogizm" va "Shartli hukmlar" kabi kitoblarini kiritishimiz mumkin. Forobiy o'zining asarlarida mantiq ilmi, uning predmeti, tuzilishi, vazifalari, fikrlash jarayonining bosqich va shakllari, mantiqiy qonun-qoidalari, usul hamda amallari haqida keng ma'lumotlar bergan.

Forobiy mantiqqa "muayyan qonun-qoidalar asosida insonning fikrlash intellektini yo'naltiruvchi va takomillashtiruvchi fan" deb ta'rif beradi. Ushbu ta'rifni yanada aniqlashtirsak, Forobiy asarlarida mantiq fanlarining fani sifatida tafakkurning qonun-qoidalarini o'rganuvchi bosh fan, hatto san'at deb baholanadi. Faqat tafakkur qonunlarigina bizga chin haqiqatni ochib bera oladi. Forobiyning ta'kidlashicha, ularsiz fikrimiz qachon chin, qachon yolg'onligini yoki qachon xatoga yo'l qo'yg'anligimizni bila olmaymiz. Qolaversa, haqiqat zaminida yotgan qarama-qarshiliklar va ularning yechimlarini topa olmaymiz. Forobiyning asarlarida tushuncha, hukm va xulosa kabi tafakkur shakllari juda keng, qamrovli va batafsil izohlanadi. Ayniqsa, sillogizm, uning paydo bo'lish asoslari, figura va moduslari ko'p o'rganilgan. Forobiyning ta'rifi haqida, tushuncha – universal tabiatga ega, hissiy idrok qilinuvchi narsalar haqida bilim beruvchi kategoriya. Bundan tashqari, Forobiyning mantiq tizimida tushunchani shakllantirishning usul va amallari, turlari hamda ularning o'rtasidagi munosabat masalalari ham keng o'rin olgan [6].

Tahlil va natijalar. Forobiy insonni dunyo tarqqiyotining eng mukammal va etuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra, u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi. Faylasuf ta'lim-tarbiya tabiat hodisalaridan foydalanish va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, jamiyatning ichki tartib qoidalarini to'g'ri o'rganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni kamol toptirish zarurligini ta'kidlaydi. Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga:

aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e’tibor beradi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk va mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog‘i lozim. Demak, ta’lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi- jamiyat talablariga to‘la-to‘kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal insonni tayyorlashdir. Allomaning “Ideal shahar aholi ilmining fikrlari” hamda “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli risolalarida bu fikrlar yanada aniq-ravshan ifodalangan.

Tarbiya berish usuli, Forobiyning fikricha, ikki turli bo‘ladi “ Avvalgi usul-san’atni o‘z rag‘batlari bilan o‘rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo‘lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullarida foydalanadi”.Forobiy bilimdon, ma’rifatli, yetuk odamlarning obrazini tasvirlab ekan, shundayday deydi:“Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ligi haqida qayg‘ursin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zning udasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va

dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va axilli ilmdan mol-dunyoni ayamasin, barcha mavjud, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin” [7].

Xulosa va takliflar. Abu Nasr Forobiy insoniyat tafakkuri tarixida ilm va ma’naviyatni uyg‘unlashtirgan alloma sifatida o‘chmas iz qoldirdi. Uning ilmiy-falsafiy qarashlari hozirgi davrda ham insonni komillikka, adolatga va ma’rifatga chorlaydi. Forobiyning “aql va fazilat” haqidagi g‘oyalari bugungi global muammolar — ma’naviy inqiroz, ekologik befarqlik va axloqiy tanazzulni yengishda muhim falsafiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu fikrlardan Forobiyning ta’lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy- axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi. Uning e’tiqodicha, bilim va ma’rifatsiz kutilgan maqsadga erishilmaydi va bola ham yetuk bo‘lib yetishmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham ta’lim-tarbiya bilan yakunlanishini aytadi.Umuman, Forobiy o‘z davridagi yoshlarning ta’lim olishlari bilim egallashlari, hunar o‘rganishlari, faoliyat ko‘rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta’lim-tarbiyada g‘oyat muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B.35. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonuni Toshkent sh., 2021-yil 5-iyul,O‘RQ- 699-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
3. Xayrullayev M. Sharq Renessansi va Forobiy. -Fan va turmush”, Toshket. 1975, 239 –b
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. – Toshkent, “Fan”, 1975.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993.
6. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida . – Toshkent, “Yozuvchi”, 2001.